

# ЯНГИ ИҚТИСОДИЁТ РИВОЖЛАНИШИ ИСТИҚБОЛЛАРИ: ГЛОБАЛ, МИНТАҚАВИЙ ВА МИЛЛИЙ ХУСУСИЯТЛАР

Республика илмий-амалий анжумани  
2020 йил 21 апрель



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ  
ВАЗИРЛИГИ**

**ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК УНИВЕРСИТЕТИ**

**ЯНГИ ИҚТИСОДИЁТ РИВОЖЛАНИШИ ИСТИҚБОЛЛАРИ: ГЛОБАЛ,  
МИНТАҚАВИЙ ВА МИЛЛИЙ ХУСУСИЯТЛАР**

**Республика илмий-амалий анжумани  
2020 йил 21 апрель**

**Тошкент 2020**

**Янги иқтисодиёт ривожланиши истиқболлари: глобал, минтақавий ва миллий хусусиятлар.** Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. – Т.: 2020. – 285 б.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 7 февралдаги 56-Ф сон фармойиши ва Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлигининг 2020 йил 13 февралдаги 116-сонли буйруғига биноан 2020 йил 21 апрелда Тошкент давлат шарқшунослик университети томонидан “**Янги иқтисодиёт ривожланиши истиқболлари: глобал, минтақавий ва миллий хусусиятлар**” мавзусида республика илмий-амалий анжумани ўтказилди.

Анжуманда янги иқтисодиёт шаклланиши ва ривожланишининг илмий, назарий ва услубий асослари, Ўзбекистонда янги иқтисодиёт шаклланиши омиллари, шарт-шароитлари ва истиқболлари, хорижий, шу жумладан, Шарқ мамлакатларнинг янги иқтисодиётни ривожлантириш тажрибаси ва унинг ижобий жиҳатларидан Ўзбекистон шароитида қўллаш имкониятлари, янги иқтисодиёт шаклланишининг глобал ва минтақавий тенденциялари, унинг ривожланишида ахборот технологиялари ва инновцияларнинг ўрни ва роли каби масалалар муҳокама қилинди.

Ушбу тўпламга илмий-амалий анжуман қатнашчилари маъruzалари ва тезислари киритилган.

Мазкур тўпламга киритилган маъруза ва маъруза тезисларининг мазмуни, улардаги статистик маълумотлар ва меъёрий ҳужжатлар санасининг тўғрилиги хамда танқидий фикр-мулоҳазаларга муаллифларнинг ўzlари масъулдирлар.

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

**Ш.Ж. Эрмаматов** – и.ф.н., доц., ТошДШУ кафедра мудири (раҳбар).

**Н.Т.Тўхлиев** – и.ф.д., ХИА профессори.

**Б.Ф.Султанов** – и.ф.д., Қишлоқ хўжалиги илмий-тадқиқот институти директори.

**Т.С. Расулов** – и.ф.д., ТошДШУ профессори.

**Ч.К.Хусанов** – и.ф.н., ТошДШУ, декан.

**Г.А.Саттикулова** – ТошДШУ катта ўқитувчisi

Мазкур тўплам Тошкент давлат шарқшунослик университетининг 2020 йил 18 апрелдаги 9-сонли Илмий Кенгаши қарорига кўра нашрга тавсия этилган.

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ГЛОБАЛЬНЫЕ,  
РЕГИОНАЛЬНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ**

**Республиканская научно-практическая конференция  
21 апреля 2020 года**

**Ташкент 2020**

**Материалы республиканской научно-практической конференции «Перспективы развития новой экономики: глобальные, региональные и национальные особенности» – Т.: 2020. – 285 с.**

21 апреля 2020 года прошла республиканская научно-практическая конференция, организованная Ташкентским государственным университетом востоковедения в соответствии с постановлением №56-П Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 февраля 2020 года и приказом №116 Министерства высшего и среднего специального образования Республики Узбекистан от 13 февраля 2020 года на тему: **«Перспективы развития новой экономики: глобальные, региональные и национальные особенности»**.

В ходе конференции обсуждались научные, теоретические и методологические основы формирования и развития новой экономики, факторы, предпосылки и перспективы формирования новой экономики в Узбекистане, опыт развития новой экономики зарубежных стран, в том числе стран Востока и возможности его использования в условиях Узбекистана, глобальные, региональные и национальные особенности развития новой экономики, роль и место информационных технологий и инноваций в ее формировании.

В настоящий сборник включены доклады и тезисы участников научно-практической конференции.

Авторы опубликованных статей и тезисов несут ответственность за содержание докладов и тезисов, достоверность статистической информации и даты нормативных актов, а также, критические суждения.

### **РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Ш.Ж.Эрмаматов** – к.э.н., доц., зав. каф. ТашГУВ (руководитель).

**Н.Т.Тухлиев** – д.э.н., профессор МИА

**Б.Ф. Султанов** – д.э.н., директор научно-исследовательского института экономики сельского хозяйства.

**Т.С.Расулов** – д.э.н., профессор ТашГУВ.

**Ч.К.Хусанов** – к.э.н., декан, ТашГУВ.

**Г.А.Саттикулова** – старший преподаватель ТашГУВ.

Настоящий сборник рекомендован к печати решением Ученого Совета Ташкентского государственного университета востоковедения (Протокол №9 от 18 апреля 2020 года).

- маркетинг стратегиялари орқали мода индустриясининг ривожланиш йўналишларини белгилаш;

- “Ўзтўқимачиликсаноат” қошида ташкил қилинаётган енгил саноат маҳсулотлари кўргазмаси фаолиятида интернет маркетинг стратегияларин кўллаш;

- инновацион ва рақамли иқтисодиётни ривожланиши шароитида тўқимачилик, тикув-трикотаж корхоналлари фаолиятини ривожлантиришда рақамли маркетинг стратегияларидан фойдаланиш рақобат курашида устун мавқеига эга бўлади.

### **Адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони. // www.lex.uz.

2. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов – М. “Соц.экгиз”, 1962.

3. Портер М. Международная конкуренция – М.: «Международные отношения», 1993

4. Kamilova X.X., Vohidova U.A. Loyihalash. O`quv qo`llanma.Toshkent -2017

5. Камилова Х.Х , Каримова Г. Реклама ва дизайн. Т. Ўзбекистон - 2012.

6. World Trade Statistical Review 2019.

[https://www.wto.org/english/res\\_e/statis\\_e/wts2019\\_e/wts19\\_toc\\_](https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/wts2019_e/wts19_toc_)

*Maxmudov N.M. – i.f.d., TDIU professori  
Avazov N.R. - TDIU “Iqtisodiyot” fakulteti talabasi*

## **XORIJY INVESTITSIYALAR – IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI**

Hozirgi kunda iqtisodiyot rivojlanishining asosi sifatida xorijiy investitsiyalar qaralmoqda. Xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar globallashuvning asosiy drayveri va hozirgi global iqtisodiyotda eng muhim rolni o‘ynaydi. U mamlakatlarning ishlab chiqarish jarayonini qo‘sishimcha kapital bilan ta’minlaydi va iqtisodiy o‘sish darajasini oshiradi<sup>193</sup>.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadi-ki, bir yilda 6 % dan ortiq iqtisodiy o‘sishni ta’minalash uchun milliy jamg‘armalar YaIMning kamida 25 % ni, investitsiyalar esa 30 % ni tashkil etishi kerak<sup>194</sup>. Bundan kelib chiqadi-ki, hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlanirish uchun iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish muhim hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarning hajmi oshishi uchun mamlakatda qulay investitsion muhitning shakllangan bo‘lishini talab qiladi. Mamlakat iqtisodiyotida investorlar

<sup>193</sup> Hui-Ching Hsieh, Sofia Boarelli, Thi Huyen Chi Vu. “The effects of economic policy uncertainty on outward foreign direct investment”. International Review of Economics and Finance 64 (2019) 377–392.

<sup>194</sup> N.G. Karimov, R.X. Xojimatov. – “Investitsiya” . O‘quv qo‘llanma- T.:Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. –B. 39.


uchun qanchalik qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilsa, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga kirib kelish hajmi oshib boradi chet ellik investorlarning ham mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga bo‘lgan qiziqishi yuqori bo‘ladi.

**Investitsiyalar** – investorlar tomonidan o‘z maqsadlariga erishish uchun tegishli faoliyat turiga kiritiladigan va pulda ifodalangan har qanday fuqarolik huquqlari obyektidir<sup>195</sup>.

Xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish asosida mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishiga erishish mumkin. Umuman olganda xorijiy investitsiyalarning ikki turi farqlanadi. Bular xorijiy portfel investitsiyalar hamda xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalardir. Xorijiy portfel investitsiyalar asosan qimmatli qog‘ozlarga kiritiladigan bo‘lsa, xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar bevosita yangi korxona barpo etish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni hajmini oshirish kabi tadbirkorlik faoliyatiga kiritiladi. Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning katta ulushi bu xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalardir.

O‘zbekistonda bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy omil sifatida investitsiyalar qaralmoqda hamda iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning hajmini oshirish uchun faol investitsiya siyosati olib borilmoqda. Iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarning hajmini oshirishga qaratilgan islohatlar natijasida mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning hajmi oshib bormoqda(1-rasm). Bu esa mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishini ta’minovchi asosiy vositadir.

**Xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘zlashtirilishi**  
(mln. AQSh doll.)



**1-rasm. Xorijiy investitsiya va kreditlarning o‘zlashtirilishi (mln. AQSh doll.)<sup>196</sup>**

Birgina 2019-yil holatida xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelish holatini tahlil qilinsa, unda quyidagi holatni kuzatish mumkin: 2019 yilda

<sup>195</sup> Mustafakulov Sh.I., “Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot”. Monografiya – T.: “Ma’naviyat” O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. 2017-y. 18-b.

<sup>196</sup> www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlansasi.

86653,1 mlrd. so‘m (dollar ekvivalentida 9,8 mlrd. AQSH doll.) yoki 2018 yilga nisbatan 2,5 marta ko‘p asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o‘zlashtirildi. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi – 45,7 % tashkil etdi.

2019 yilda o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning Yalpi ichki mahsulotga nisbati 16,9 % ni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan 9,5 % punktga ko‘paygan.

O‘zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlarning dollar ekvivalentidagi qiymati 9803,5 mln. AQSH dollarini tashkil etib, undan 4205,4 mln. AQSH dollari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni, yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 42,9 % ini tashkil etgan.

O‘zlashtirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning hajmi 2019 yilda 37171,3 mlrd. so‘nni yoki 2018 yilga nisbatan 3,6 martani tashkil qilgan.

Yuqorida keltirilgan statistik ma’lumotlar asosida O‘zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning hajmi oshib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa O‘zbekiston iqtisodiyotida qulay investitsion muhitning shakllanib borayotganligi hamda investorlarga yana ko‘plab imkoniyatlar yaratilib berilayotganligidan dalolat beradi.

Shunga qaramasdan O‘zbekiston iqtisodiyotida yana qulay investitsion muhit yaratishga potensial yetarli darajada. Haligacha mamlakat iqtisodiyotida investitsion muhitga salbiy ta’sir qiluvchi ba’zi omillar saqlanib qolmoqda. Bularga mamlakatda inflatsiya darajasining balandligi misol bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda mamlakatda inflatsiya darajasi balandligi faqatgina investitsion muhitga emas, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatda inflatsiya darajasini jilovlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bundan tashqari investorlarga yaratilayotgan imkoniyatlarni amaliyotdagি tadbig‘ida ba’zi kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligi ham mamlakat investitision muhitiga salbiy ta’sir qilayotgan omillardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning hajmini oshirishga qaratilgan quyidagi takliflarni berib qolamiz:

✓ inflatsiya darajasini jilovlashga qaratilgan barcha zaruriy choralarни ko‘rish hamda inflatsiya darajasini jilovlash maqsadida rejalashtirilgan Markaziy bank tomonidan inflatsion targetlash rejimiga o‘tish ishlarini tezlashtirish. Bundan tashqari inflatsiya darajasini investitsion loyihalarga salbiy ta’sirini oldi olish tizimini takomillashtirish;

✓ investorlarga yanada ko‘proq qulayliklar berish hamda ularning O‘zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya tikishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish tizimini takomillashtirish;

✓ respublikamizga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan, iqtisodiyotning zamонавиу таркибini vujudga keltirishga ko‘maklashayotgan xorijiy sarmoyadorlarga imtiyoz va preferensiyalarni taqdim etish tizimini takomillashtirish;

✓ energiya tejamkor va atrof muhitga kam zarar yetkazadigan yuqori texnologik, zamонавиу uskunalarni o‘rnatish; mahalliy sharoitlarga mos keladigan

ilg‘or xorijiy texnologiyalarni tatbiq etish, o‘zimizda yaratilayotgan ixtirolarni rag‘batlantirish va bilimlar iqtisodiyotiga mablag‘lar yo‘naltirish.

Yuqoridaq takliflarni amaliyotga tadbiq etish asosida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning kirib kelish hajmini oshirish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkin-ki, xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy omillardan bo‘lib hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga kirib kelish hajmini oshirish bugungi kunning eng dolzarb iqtisodiy masalalaridandir. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotga kirib kelish hajmi mamlakatda shakllangan investitsion muhitga bog‘liq hisoblaniladi. Investitsion muhit qanchalik investorga qulay bo‘lsa, mamlakat iqtisodiyotida investitsiyalarning hajmi oshib boradi. O‘zbekiston iqtisodiyotida qulay investitsion muhitni shakllantirishga qaratilgan islohatlarning amalga oshirilayotganligi sababli bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi oshib bormoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga o‘zining ijobjiy ta’sirini ko‘rsatayapti hamda mamlakatda YaIM ning shakllanishida ham xorijiy investitsiyalar alohida o‘ringa egadir.

### **Adabiyotlar**

1. Hui-Ching Hsieh, Sofia Boarelli, Thi Huyen Chi Vu. “The effects of economic policy uncertainty on outward foreign direct investment”. International Review of Economics and Finance 64 (2019) 377–392.
2. N.G‘.Karimov, R.X.Xojimatov. Investitsiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. – 516 b.
3. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya – T.: “Ma’naviyat” O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. – 2017. – 328 b.
4. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti ma’lumotlari.
5. Maximov N.M., Avazov N.R. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo‘llari: Ilmiy-ommabop risola. – T.: TDIU, 2019. – 104 b.
6. www.tsue.uz – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rasmiy sayti

*Қодиржонов А. – Тошкент Университети изланувчиси*

## **ЎЗБЕКИСТОН ТАШҚИ САВДОСИННИГ ТАРКИБИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ**

Ҳар бир мamlакат иқтисодий барқарорлиги ва ривожланишида учун ташқи савдо муҳим ҳисобланиб, миллий иқтисодиёт учун ресурслар чекланганлиги, ички бозор кичиклиги сабаб юзага қелувчи талаб хажмининг етарли эмаслиги каби муаммоларни ҳал этишда ёрдам беради. Натижада ишлаб чиқарувчиларда ишлаб чиқариш воситаларининг тўла бандлиги таъминлаш ва “кўлам самараси”дан унумли фойдаланиш имконияти вужудга келади. Ўз ўрнида

<i>Aziz K. Abdullaev</i> The importance of world pipeline transport networks in the transportation of world energy resources.....	<b>214</b>
<i>Сим Д.</i> Актуальность системного подхода в управлении персоналом (на примере микрокредитных организаций).....	<b>216</b>
<i>Ким Е.А.</i> Основные тенденции и негативное влияние пандемии на туристскую отрасль в Узбекистане.....	<b>222</b>
<i>Имомова Н.А.</i> Янги иқтисодиётда жаҳон саноат ишлаб чиқаришидаги таркибий ўзгаришлар.....	<b>225</b>
<i>Мукумова Д.И., Ярова С.Б.</i> Основы теории управления образовательными системами.....	<b>227</b>
<i>Исамухамедова Г.С.</i> Инициатива «один пояс, один путь» как новая модель сотрудничества с Узбекистаном.....	<b>232</b>
<i>Махмудов Т.О.</i> Тикув-трикотаж маҳсулотлари экспортида мода индустриясининг аҳамияти.....	<b>234</b>
<i>Maxmudov N.M., Avazov N.R.</i> Xorijiy investitsiyalar – iqtisodiyotni riivojlantirishning asosi.....	<b>237</b>
<i>Қодиржонов А.</i> Ўзбекистон ташқи савдосининг таркибий хусусиятлари	<b>240</b>
<i>Турғунбоев Б.</i> Бюджет ташкилотларида товар-моддий захиралар ҳисобини юритишни такомиллаштириш масалалари	<b>245</b>
<i>Ochilov I., Raxmatova Sh.</i> Nodavlat notijorat tashkilotlarining buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirish.....	<b>248</b>
<i>Азимбаева Ш., Холбаева О.</i> Буюк Британия инвестицион ташқи сиёсатининг ҳуқуқий асослари ва уни амалга ошириш механизmlари	<b>251</b>
<i>Шодиев К.Ш.</i> Инновационная стратегия в области повышения качества услуг в туризме.....	<b>257</b>
<i>Lapasov N.A.</i> Globallashuv sharoitida bilimlar, ilmiy texnika ishlanmalari, zamonaviy texnologiyalarning umumlashuvi.....	<b>259</b>
<i>Shovdirov T.N.</i> Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinalarini yaratishning muammo va istiqbollari.....	<b>262</b>
<i>Ruxsuev Б.</i> Белбог-йўл ташаббусининг Марказий Осиёдаги истиқболлари.....	<b>265</b>
<i>Ҳақбердиева С.</i> Инвестицияларнинг ўзига хос таснифи.....	<b>269</b>
<i>Narmanov U.</i> Opportunities for improving household welfare through livestock development.....	<b>272</b>
<i>Teshayev D.M.</i> Ilm-ma'rifatni rivojlantirish: amalga oshirilgan ishlar va ilmni rivojlantirish usullari.....	<b>274</b>
<i>Раимов Ж.</i>	

# **ЯНГИ ИҚТИСОДИЁТ РИВОЖЛАНИШИ ИСТИҚБОЛЛАРИ: ГЛОБАЛ, МИНТАҚАВИЙ ВА МИЛЛИЙ ХУСУСИЯТЛАР**

## **ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НОВОЙ ЭКОНОМИКИ: ГЛОБАЛЬНЫЕ, РЕГИОНАЛЬНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ**

**Мұхаррір**

**- Ш. Эрмаматов**

**Техник мұхаррір**

**- А. Султанов**

Нашриёт лицензияси 41 № 236, 2013, 4.07.  
Босишига 18.04.2020 йилда рухсат этилди.  
Бичими 60x80 1/16. Ҳажми 18,75 босма табоқ.  
Адади 100 нұсха. Буюртма № 73.

МЧЖ «Adad plus»да чоп этилди.  
Тошкент шаҳар, Чилонзор тумани,  
Бунёдкор шоҳ кўчаси, 28 уй